

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Ш.М.Султонова, Н.Б.Усмонова**

Особенности формирования колористической медицинской терминологии (на примере русских, латинских, греческих и немецких названий болезней) ..... 453

**Sh.M.Sultonova, M.B.Otaboyeva**

Bilingv bolalar nutqidagi agrammatizmlarning psixolingistik asoslari ..... 458

**G.X.Nurmatova**

korpus lingvistikasi doirasidagi diskurs tadqiqotlarning ilmiy-nazariy muammolari ..... 463

**Z.Sh.Pazilova**

O'zbek va Nemis xalqlarida to'ydan avval, to'y kuni va to'ydan keyin o'tkaziladigan urf-odatlar ..... 469

**Y.Sh.Shuxratova**

O'xshatish munosabatini ifodalovchi sintaktik vositalar ..... 472

**M.E.Umarxo'jayev, N.F.Tursunova**

National-cultural semantics of phraseology: an exploration into the heart of idioms and expressions ..... 475

**N.R.Umarova, D.M.Xayitova**

Tilshunoslikda koloronimlar va ularning kognitiv talqini ..... 478

## BILINGV BOLALAR NUTQIDAGI AGRAMMATIZMLARNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

### ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АГРАММАТИЗМОВ В РЕЧИ ДВУЯЗЫЧНЫХ ДЕТЕЙ

### PSYCHOLINGUISTIC FOUNDATIONS OF AGRAMMATISM IN THE SPEECH OF BILINGUAL CHILDREN

**Sultonova Shoxista Muxammadjanovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Alfraganus universiteti prof., f.f.d.

**Otaboyeva Muslimaxon Baxtiyor qizi<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

#### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada ikki tilli bolalar nutqidagi agrammatizmlar, uning psixolingvistik asoslari va agrammatizmlarning xususiyatlari muhokama qilinadi. Agrammatizm – bu nutq faoliyatidagi grammatik me'yorlarning buzilishi. Ushbu ishda biz bu turdag'i xatolarning sabablari rivojlanishdagi fiziologik yoki psixologik kasalliklar emas, balki bolalarning ikki tilli muhitida rivojlanayotgani va nutq interferensiyasi degan fikrga asoslanamiz. Maqolada rus tilining turkiy tillar, xususan o'zbek tili bilan o'zaro aloqasi ko'rib chiqiladi. Maqolada ontogenetning 3-bosqichi, ya'ni maktabgacha yoshdag'i bolalar ustida kuzatishlar olib borilgan, ularning jonli nutqidan misollar keltirilgan. Ushbu bosqich bolalarning fonematisk eshitish qobiliyati rivojlanishi, so'z boyligi o'sishi va so'zlarning leksik ma'nolari boyitilishi, jumlalarni tuzishda murakkab konstruksiylar o'zlashtirilishi va boshqalar bilan tavsiflanadi. Grammatik toifalar va qoidalar haqida tasavvurga ega bo'limgan bolalarda tilning turli darajalari: so'z shakllanishi (so'z yaratish), morfologiya, sintaksis va boshqalar – bilan bog'liq nutq xatolar tez-tez uchraydi. Agrammatizmlar nutq interferensiyasi hamda o'rganilayotgan tilda yangi, murakkab tushunchalar va konstruksiylar bilan tanishish bilan bog'liqdir. Natijada, ikki tilli bolalar nutqidagi agrammatizmlar nutq rivojlanishining dastlabki bosqichlarida tez-tez uchrab turishi va chet tilini o'zlashtirishda muqarrar qadam ekanligi aniqlandi.*

#### *Аннотация*

В данной статье рассматриваются аграмматизмы в речи детей-билингвов, психолингвистические основы и особенности аграмматизмов. Аграмматизм – это нарушение грамматических норм в речевой деятельности. В данной работе мы отталкиваемся от утверждения, что причинами такого рода нарушений являются не физиологические или психологические нарушения в развитии, а нахождение детей в билингвальной среде и речевая интерференция. В статье рассматривается взаимодействие неродственных языков – русского с тюркскими языками, а именно с узбекским языком. Приводятся примеры из живой речи детей, за которыми велись наблюдения. Все они находятся на 3- этапе онтогенеза – дошкольном. Этот этап характеризуется тем, что у детей развивается фонематический слух, растёт словарный запас и обогащаются лексические значения слов, при составлении предложений осваиваются сложные конструкции и т.д. У детей, которые не имеют понятия о грамматических категориях и правилах, часто встречаются речевые ошибки, связанные с различными уровнями языка: словообразование (словотворчество), морфология, синтаксис и т.д. В итоге выявлено, что аграмматизмы в речи детей-билингвов чаще встречаются на ранних этапах речевого развития и являются неизбежным шагом в овладении иностранным языком. Использование аграмматизмов связано в равной степени и с речевой интерференцией, и с ознакомлением новыми, сложными понятиями и конструкциями на изучаемом языке.

#### *Abstract*

*This article discusses agrammatism in the speech of bilingual children, psycholinguistic foundations and features of agrammatism. Agrammatism is a violation of grammatical norms in speech activity. In this paper, we proceed from the statement that the causes of such disorders are not physiological or psychological disorders in development, but the presence of children in a bilingual environment and speech interference. The article examines the interaction of unrelated languages – Russian with Turkic languages, namely, Uzbek. Examples from the live speech of children who were monitored are given. All of them are at the 3rd stage of ontogenesis – preschool. This stage is characterized by the fact that children develop phonemic hearing, vocabulary grows and lexical meanings of words are enriched, complex constructions are mastered when composing sentences, etc. Children who have no idea about grammatical categories and rules often have speech errors associated with different levels of language: word formation (word-making), morphology, syntax, etc. As a result, it was revealed that agrammatism in the speech of bilingual children is more common in the early stages of speech development and is an inevitable step in mastering a foreign language. The use of agrammatism is associated equally with speech interference, and with familiarization with new, complex concepts and constructions in the language being studied.*

## TILSHUNOSLIK

**Kalit so'zlar:** psixolingvistika, bilingvism, agrammatizm, bilingv bolalar, ontogenez, nutq faoliyati, bilingval muhit, nutq interferensiyasi.

**Ключевые слова:** психолингвистика, билингвизм, аграмматизм, дети-билингвы, онтогенез, речевая деятельность, билингвальная среда, речевая интерференция.

**Key words:** psycholinguistics, bilingualism, agrammatism, bilingual children, ontogenesis, speech activity, bilingual environment, speech interference.

### KIRISH

Globallashuv jadal rivojlanayotgan bir davrda bolalar bilingvizmi fan uchun katta qiziqish uyg'otmoqda, sababi chet tillarini erta o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu muammoni o'rganish orqali tilni o'zlashtirishning ma'lum qonuniyatlarini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, ona tili va o'rganilayotgan tillarning aralashishi tufayli namoyon bo'lgan bolalar agrammatizmi hodisasiga e'tibor qaratish lozim.

Nutq agrammatizmini turli jihatlardan ko'rib chiqish mumkin, chunki ular nafaqat tibbiyotda, balki tilshunoslik, psixologiya, logopediya, neyrolingvistika va boshqa bilim sohalarida ham tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin. Shunday ekan, agrammatizm hodisasiga ko'plab ta'riflar berilishi mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Agrammatizm – bu so'zlarni grammatic jihatdan to'g'ri o'zgartira olmaslik va jumlalarni to'g'ri qura olmaslik (ekspressiv A.), shuningdek, grammatic shakllarning ma'nosini noto'g'ri tushunishda (impressiv A.) namoyon bo'ladigan nutq grammatic tuzilishining umumiyliz hisoblanadi. Agrammatizm predloglarni tushirib qoldirishda, so'zlarning rod (rus tilida), son, kelishiklarda noto'g'ri moslashuvida, "telegraf uslubi" va hokazolarda namoyon bo'ladi. Agrammatizm, odatda, alaliya, afaziya, aqliy zaiflik bilan bog'liq hollarda qayd etiladi [4].

Agrammatizm – bu nutqning grammatic tuzilishini tahlil qilish va nutqdan grammatic jihatdan to'g'ri foydalanish qobiliyatini yo'qotish bilan tafsiflangan neyropsixologik kasallik. Ko'pincha miyaning dominant yarim pallasida chakka va peshona sohasining o'choqli organik zararlanishida kuzatiladi va afazianing turli shakllariga kiritiladi. Agrammatizmning turli ko'rinishlari ajratiladi:

1) *ekspressiv agrammatizm* – faol nutqning grammatic qurilishidagi xatolar bilan tafsiflanadi;

2) *impressiv agrammatizm* – grammatic konstruksiyalar, birinchi navbatda, munosabatlarni ifodalovchi (bog'lamalar, predloglar, bog'lovchilar, so'z tartibi) ma'nosini tushunishda qiyinchiliklar bilan xarakterlanadi [2].

Agrammatizm (yunoncha "agrammato" – mujmal) – faol nutqning grammatic tuzilishidagi xatolar (ekspressiv A.) va fleksiyalar (otasinig ukasi), predloglar (ostida, ustida), bog'lovchilar (garchi, qaramay va b.) va so'z tartibi (kiyim belkurakka tegdi va belkurak kiyimga tegdi) yordamida semantik munosabatlarni ifodalovchi grammatic konstruksiyalar ma'nosini tushunishdagi xatoliklardir (impressiv A.). Kattalardagi agrammatizm nutq buzilishining namoyon bo'lishi sifatida afazianing turli shakllarida yuzaga keladi.

Bolalarda agrammatizm nutq rivojlanishining dastlabki bosqichlarida, shuningdek, nutq aloqasi va tilning murakkab grammatic shakllarini o'zlashtirishga to'sqinlik qiladigan eshitish buzilishlarida kuzatilishi mumkin.

Agrammatizm hodisalarini og'zaki va yozma nutqda aniqlash mumkin [1]. Ko'rib turganimizdek, mohiyat o'zgarishsiz qolmoqda: agrammatizm nutq faoliyatida grammatic me'yorlarning buzilishidir. Biroq, faqat Katta psixologik lug'atda agrammatizm bolalarda nutqni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida sodir bo'lishi qayd etilgan. O'z ishimizda biz quyidagi bayonotga asoslanamiz – bunday xatolarning sabablari rivojlanishdagi fiziologik yoki psixologik muammolar emas, balki bolalarning ikki tilli muhitda yashayotgani, va nutq aralashushi (interferensiysi) hisoblanadi.

Fanga ma'lumki, bolalar ikki tilli muhitga kirganda, kattalarga qaraganda tezroq moslashadilar va ikkinchi tilni osonroq o'rganadilar. Ammo, shu bilan birga, dastlab ular chet tilida o'z ona tili qonunlariga muvofiq gapira boshlaydilar, ushbu jarayon nutq interferensiysini yuzaga keltiradi.

Nutq interferensiysi – bu shaxs va jamiyat ongidagi tillar o'zaro ta'sirining salbiy natijasi bo'lib, u foydalanish jarayonida ikkinchi til tizimi va me'yorlarining ona tili ta'siri ostida buzilishi

shaklida namoyon bo'ladi [6]. Bu faqat ona tilining boshqa chet tilini o'rganish/ o'zlashtirishga ta'sirini anglatadi. Biroq, ilmiy dunyoda bu ta'rifni to'ldiruvchi o'zgacha fikrda bo'lgan olimlarni ham uchratish mumkin.

Masalan, M. Djusupov nutq interferensiyasining quyidagi ta'rifini taklif qiladi – bu ham ona til, ham o'rganilayotgan til o'ziga xosliklarining o'zaro salbiy ta'siri natijasidir, ya'ni bu ikkilikda bir vaqtning o'zida sodir bo'luvchi ikki tomonlama jarayon [8, 23]. Boshqacha aytganda, u nafaqat ona tilining ikkinchi tilga ta'sirini, balki aksini ham nazarda tutadi. Bundan tashqari, u ularni bir biridan ajralmas deb hisoblaydi – ona tili va o'rganilayotgan o'zga til bir-biriga teng ta'sir qiladi. Ikki til tizimining o'ziga xosligi bilingvning chet tilidagi nutqiga navbatma-navbat, differensial (alohida) emas, balki bir vaqtning o'zida ta'sir qiladi, uning tahlili potensial va faktik interferensiya sohasi paydo bo'lishining ba'zi asosiy murakkabliklarini, ba'zan tushunarsizligi, yaqqol ko'rinnmasligini, shuningdek, bilingvizmni shakllantirish jarayoniga hamroh bo'ladigan ba'zi o'ziga xos turlarni tushuntirishga yordam beradi [8, 28].

Bilingvizm chet tili va madaniyatini o'zlashtirish bilan shakllanadi. Bunda o'rganilayotgan til ona tiliga qarinosh bo'lishi mumkin (masalan, o'zbek – qoraqalpoq, rus – ukrain). Bunday holda til va madaniyatni o'zlashtirish osonroq va tezroq ro'y beradi, shuning uchun nutq interferensiysi oz darajada namoyon bo'ladi. Biroq, ona tiliga qarindosh bo'lmagan chet tili va madaniyatini (masalan, rus – o'zbek, rus – ingliz) o'zlashtirganda, nutq interferensiyasini yaqqol kuzatish mumkin.

Ushbu ishda biz o'zaro bog'liq bo'lmagan tillar – rus tilining turkiy tillar sirasiga kiruvchi o'zbek tili bilan o'zaro ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Tinglash va tushunish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, go'daklik davrida odam o'z ona tilini avval atrofidagi kattalarning muloqotini tinglash orqali o'zlashtiradi, keyin gapishtirishni va nutqida eng oson (artikulyatsiya nuqtai nazaridan) va osongina tanib olinadigan so'zlardan foydalanishni boshlaydi va shundan keyingga o'qish va yozishni o'rganadi. Tadqiqot mualliflarining fikricha, chet tilini o'rganishda ham shunday ketma-ketlik qo'llanilishi kerak [7, 79].

Maqolada asosan tahlil va kuzatuv metodlaridan foydalanilgan.

### NATIJALAR

Ushbu ish davomida kuzatilgan bolalar yangi tilni aynan shu tartibda o'zlashtirganlar – eshitish, gapishtirish, o'qish. Ushbu tartibning buzilishiga quyidagi misolda guvoh bo'lishimiz mumkin: bir oila qizining dastlabki rivojlanish bosqichida ikki tilni aralashtirilgan, ya'ni bola ona tilini minimum darajada o'zlashtirishidan avval u bilan ikki tilda (o'zbek – ona tili, rus – o'rganilayotgan til) muloqot olib borilgan. Natijada, qiz uzoq vaqt davomida ranglar, shakllar, kiyim-kechak, buyumlar kabi tushunchalarni chalkashtirar edi. Unga: «Покажи красный», deb aytilsa, u o'ylanib qolardi, kattalar esa darhol – “Qizil, qizil”, deb unga yordam berardilar. Natijada, qizga bir vaqtning o'zida ikkita tilni dekodlash qiyin bo'lar va u boshqa rangni ko'rsatar edi. Bu hodisa katta maktabgacha yoshdag'i davrda, qiz ijobji til muhitiga tushganda barham topdi.

Bundan tashqari, ikki tilli muhitda o'sgan bolalarni kuzatish natijasida biz ko'pincha agrammatizm – tilning grammatik normalaridan og'ishlariga duch keldik. Bunday og'ishlar tilning turli darajalarida sodir bo'lishi mumkin: orfoepiya, so'z shakllanishi, morfologiya, stilistika, sintaksis va boshqalarda. Ular, ayniqsa, til o'rganishning dastlabki bosqichida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, A.A. Leontyev tomonidan tasvirlangan nutq rivojlanishining ontogenezi nutq shakllanishining 4 bosqichini o'z ichiga oladi [3]:

- tayyorlov bosqichi – 1 yoshgacha;
- tilni dastlabki o'zlashtirishning maktabgacha bosqichi – 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- maktabgacha ta'lif bosqichi - 3 yoshdan 7 yoshgacha;
- maktab bosqichi – 7 yoshdan 17 yoshgacha.

Biz kuzatgan barcha bolalar ontogenezning 3-bosqichi – maktabgacha ta'lif bosqichidadir. Bu bosqich bolalarda fonematik eshitish rivojlanishi bilan tafsiflanadi (masalan, 4,5 yoshli bolaning «регулировщик» so'zini bir necha marta to'g'ri talaffuz qilishga urinishi), lug'at tarkibi va so'zlarning leksik ma'nolari boyitiladi, jumlalarni tuzishda murakkab konstruksiylar o'zlashtiriladi va hokazo.

Misol uchun, 4 yosh-u 6 oylik bir bola boshiga ro'mol o'rashga harakat qilayotgan onasiga dedi: «Давайте я ураню». Bu yerda biz ikki tilning aralashuvini kuzatishimiz mumkin. Bola

## TILSHUNOSLIK

o'zbekcha "о'рамоқ" – «заязать» so'zining asosini va rus tilidagi fe'llarning 1-shaxs birlik -ю fleksiyasini (masalan «говорю, люблю») ishlatalish orqali yangi so'z o'ylab topdi va fikrini kontekstdan kelib chiqqan holda ifodaladi. Bu esa fan nuqtai nazaridan qiziq xatolikni keltirib chiqardi. Bu yerda biz bolaning miyasidagi fe'llarning shaxs fleksiyalarining aniq tasnifi haqida gapirishimiz mumkin.

Shuningdek, xuddi shu bola avtomobilda notanish texnikani ko'rib, ularga o'zi nom bera boshladi: «воду наливатель», «светитель», «дверь открыватель». Ular bolaning ongida qo'shimchalarni toifalar va rubrikalar bo'yicha aniq tasnifga ega ekanligini ko'rsatadi, binobarin ular ba'zida aqli yetgan insonlar uchun ham katta qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin [8]. Ya'ni, bola -тель qo'shimchasi yordamida obyektlarni shunchaki nomlamadi, balki ularning funksional xususiyatlarini ham ko'rsatib berdi.

Umuman, fe'lllar va ayniqsa vid (rus tilida fe'lga xos kategoriya) va tuslanish kategoriyalari hatto rus tilini uzoq vaqt o'rganayotganlar uchun ham qiyinchilik tug'diradi. Grammatik kategoriyalari qoidalar haqida hech qanday tasavvurga ega bo'limgan bolalar ko'pincha fe'llar bilan bog'liq nutq xatoliklariga yo'l qo'yadi. Quyida misollar keltirilgan.

Bolalar bog'chasiga ketayotgan 5 yoshli bola onasidan so'radi: «Давайте, от магазина будем взять вафли». Bu holda me'yorlardan chetga chiqish tilning ikki darajasida kuzatilishi mumkin – morfologik (будем взять) va sintaktik (взять от магазина). Birinchi xato fe'lning vidi bilan bog'liq. Bola «взять» fe'li sovershenniy vid fe'li ekanligini va uning kelasi zamon shakli hozirgi zamon fleksiyalari (возьмём) yordamida hosil bo'lishini bilmaydi va buni o'ziga tanish bo'lgan usulda bajaradi (masalan, будем играть, будем спать). Ikkinci xato esa boshqaruq qoidalarini bilmaslik va o'zbek tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish bilan bog'liq: "do'kondan olmoq" – «взять от магазина».

Xuddi shu bola o'yin davomida shunday deydi: «пробольшилось». Bizning fikrimizcha, bu so'z ham o'zbek tilidan "kattalashib ketdi" iborasini to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish orqali kelib chiqdi. Shuni ta'kidlash mumkinki, bola ikkala tilni hamda o'rganilayotgan tilda so'z shakllantirish tamoyillarini yaxshi his qiladi.

Quyidagi agrammatizmlar 4 yoshli bolaning nutqida uchraydi va fe'llarning grammatik shakllaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq: «Не скажай, я скажу», «Ты купишь мне соку?». Biroq, bunda nutq aralashuvি kuzatilmaydi. Bu yerda bola fe'llarni o'zgartirishning o'ziga xos xususiyatlarini bilmasligi va unga avval ma'lum bo'lgan fe'l konstruksiylari misolida so'zlarni o'zgartirishi tufayli nutq xatolariga yo'l qo'yadi. Masalan, «не делай» bo'lganligi uchun «не скажай»; «я куплю» bo'lganligi uchun «ты купишь».

Shu kabi hodisa o'zbek tilida ham sodir bo'lishiga guvoh bo'ldik. Ya'ni, o'zbek oilasida tug'ilgan qizaloq til rivojlanish davrining erta bosqichida rus tili muhitiga (bog'cha) tushib qolgan. Natijada, ona tilidan avval rus tilini egallagan, hozirda 3 yoshlik qizcha o'zbek tilida gaplashganda turli qo'shimchalarni chalkashtiradi, ruscha va o'zbekcha so'zlarni aralashtrib gapiradi. Misollarga qarang: "Oyi, dom kiraman", yoki "Unaka kima, senga kesvoradi".

Qurbanovaning fikriga ko'ra, bilingv bola tanlangan tildan qat'i nazar, nutq faoliyatida qisqaroq va talaffuzi osonroq so'zlarni topib ishlatalishga harakat qiladi. Bunda bola so'z qo'llash jarayonida intuitiv tarzda tildagi tejash tamoyiliga tayanadi [9, 54].

Shuni ta'kidlash kerakki, barcha kuzatilgan bolalar aqliy va jismoniy rivojlanish nuqtai nazaridan o'z yosh me'yorlariga mos keladi va ularning har birining nutq akti nisbatan tinch holatda qayd etilgan. Kuchli hissiy ko'tarinkilik davrida (quvonch, g'azab, hayajon) ularning nutqida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmadi. Biroq, bolalarning yoshi uchun qiyin narsalar haqida o'ylashganda va uzun yoki notanish so'zlarni talaffuz qilishga urinishlarida ko'proq xatolar uchradi («умернешь», «ризаций полиция», «лигурировщик»).

Shuningdek, bolalar nutq ontogenezining maktabgacha davrida o'zlarining so'z boyligini va so'z birikmalarida mavjud bo'lgan so'zlarning ma'nolarini oshiradilar. Ushbu so'zlar va so'z ma'nolarini ular o'z olam manzaralari, o'z fikrlash tarzidan kelib chiqib ishlataklar.

Superqahramonlar va superyovuzlar (turli multfilmlar asosida) bilan qiziqib qolgan 5 yoshli bolakay tez-tez quyidagi iboralarni ishatadi: «Вот я прыгну через машину!», «Бойтесь меня, я коточудищ!», «Я всех побью, никого не боюсь!». Ammo aslida bola hurkak, ko'pincha

tengdoshlari bilan shaxsiy chegaralarni himoya qila olmaydi, ular bilan konstruktiv kommunikatsiya qilishi qiyin.

Muloyim, go'zal ekanligi va malikalar kabi nozikligi tez-tez aytildigan 6 yoshli qiz o'z nutqida tez-tez kichraytiruvchi-erkalatuvchi qo'shimchalardan foydalanadi, so'zлarni ongli ravishda buzib tilini chuchuk qilib gapiradi («Паззялусътаа»). Bundan tashqari, ikkala bola ham bunday iboralarga muntazam ravishda ikkala tilda – ona o'zbek tilida ham, o'rganilayotgan rus tilida ham murojaat qilishadi.

### MUHOKAMA

Sog'lom bola normal til muhitiga kirib, bu tilni juda tez dekodlashni o'rganadi. Ko'plab tadqiqotlardan ma'lumki, bilingv bolalarning miyasi bir tilli bolalarning miyasidan ancha yaxshi rivojlangan.

Rus tilining o'zi murakkab tildir, chunki unda juda ko'p grammatik qoidalar va undanda ko'proq istisnolar mavjud. Tabiiyki, bizning voqe'likda tilni o'zlashtirish jarayoniga ko'plab omillar ta'sir qiladi: bu til muhiti, ota-onalar va o'qituvchilar / tarbiyachilarning savodi, fonematik eshitishning rivojlanganligi va shu kabilalar. Shuningdek, qiyinchiliklar ona tili va o'rganilayotgan tilning turli til tizimlariga mansubligi tufayli paydo bo'ladi.

Natijada, biz maktabgacha yoshdag'i bolalar va boshlang'ich maktab o'quvchilarining nutqida tillarni aralashtirish bilan bog'liq agrammatizmlarni kuzatishimiz mumkin. Ammo ularga tilni to'g'ri o'rganishga qanday yordam berish mumkin? Axir, yosh bolalar hech qanday grammatik va leksik kategoriyalarni tushunmaydilar, qoidalarni qabul qilmaydilar va ularga majburan nutq madaniyati bo'yicha ma'ruzalar o'qib bo'lmaydi. Bu yerda faqat o'z namunamiz va xatolarini beparvolik bilan tuzatish yordam berishi mumkin. Bunda bolaning miyasi uzoq vaqt davomida noto'g'ri variantni eslab qolmasligi uchun xatoga e'tibor qaratish shart emas, unga to'g'ri variantni aytib ko'rsatish kifoya. Shunda bola avtomatik tarzda to'g'ri variantga o'tib ketadi («Я не хочу купать!» – «Ты не хочешь купаться?» – «Да, я не хочу купаться!»).

### XULOSA

Shunday qilib, til inson jismoniy, ruhiy va mental salomatligining ko'rsatkichi bo'lgan murakkab mexanizmdir. Shuningdek, odamlarning tili tirik va ochiq, ya'ni doimiy ravishda o'zgarib turish qobiliyatiga ega deb hisoblanadi. Bu ham ma'lum darajada odamlarning yangi tilni o'rganishini qiyinlashtiradi.

Hulosa qilib aytganda, ushbu maqolada ikki tilli bolalar nutqida agrammatizm nutqni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida ko'proq uchrashi va bu chet tilini o'zlashtirishda muqarrar qadamligi ta'kidlanadi. Agrammatizmlardan foydalanish teng ravishda nutq interferensiysi hamda o'rganilayotgan tilda yangi, murakkab tushunchalar va konstruksiylar bilan tanishish bilan bog'liq. Maqolada ikki tilli bolalarning jonli nutqidan turli xil misollar keltirilgan, bu yerda tilning turli darajalarida nutq xatoliklariga yo'l qo'yiladi. Shuningdek, kuzatuvarlar davomida bolalar tillarni mukammal his qilishlari, yangi tillarni bajonidil o'rganishlari va xatolarini tuzatishdan xursand bo'lishlari ma'lum bo'ldi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

#### Kitoblar

- Большой психологический словарь. – М.: Прайм-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г. Мещерякова акад. В.П. Зинченко. 2003. – 632 с.
- Головин С. Ю. Словарь практического психолога. – М.: АСТ, Харвест. 1998. – 592 с.
- Леонтьев А.А. Основы теории речевой деятельности. М.: Наука, 1974. – 368 с.
- Логопедическая абилитация и коррекция в дифференцированной реабилитации и социальной адаптации детей и подростков с отклонениями в развитии. - М., 2002. – 333 с.
- Чуковский К.И. Собрание сочинений в 15 т. Т. 2: - От двух до пяти, М., Терра - Книжный клуб / 2001. – 800 с.

#### Jurnallar:

- Вайнрайх У. Одноязычие и многоязычие // Новое в лингвистике. Вып. VI. М.: Прогресс, 1972. С. 25-60.
- Gapparov A. Eshitib tushunish ko'nikmasini shakllantirish haqida // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2008. – № 3. – С. 72-84.
- Джусупов М. Речевая интерференция как результат двуединого отрицательного воздействия // Вестник Российской университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2021. Т. 12. № 1. С. 23-40. doi: 10.22363/2313-2299-2021-12-1-23-40.

#### Dissertatsiya:

- Qurbanova M. A. O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. Fil. fan. kand. diss.: 10.02.19. – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU, 2009. – 154 с.